

BADIIY TARJIMADA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR

Jo'raqulova Maftuna Iskandarovna

Navoiy davlat pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7378258>

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjima ishlarini amalga oshirish jarayonida til birliklarining lingvomadaniy tahlili muhim masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, Epitetlar, transformatsiyalar transliteratsiyalardan.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. В данной статье показано, что лингвокультурологический анализ языковых единиц является одним из важных вопросов в процессе художественного перевода с английского на узбекский язык.

Ключевые слова: лингвокультура, эпитеты, трансформации транслитераций.

LINGUISTIC CHARACTERISTICS IN LITERARY TRANSLATION

Abstract. This article demonstrate linguocultural analysis is one of the most important issue in the process of literary translation from English into Uzbek

Keywords: linguoculture, epithets, transformation, transliteration.

KIRISH

Tarjima sanati butun dunyo madaniyati rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi va bir tilning bor jozibasiyu madaniyatini boshqa tilga ko'chiradi. [1,28] Agar u badiiy tarjima bo'lsa tarjimondan yanada ko'proq kuch, ilhom va mashaqqat talab etadi. Lingvomadaniyat badiiy tarjimaning asosini tashkil etadi. Lingvomadaniyat har bir xalqning faqat bugungi kundagi turmush tarzini emas balki ularning asrlar davomida saqlanib kelayotgan milliy an'analari, badiiy, ilmiy madaniyati, musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabilarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Madaniyat va lingvomadaniyat tushunchalari bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Madaniyat bu har bir elatning bor bilim va qadriyatlarining jamlanmasidir. Manashunday go'zal va takrorlanmas jihatlar esa har bir millatning tilida o'z aksini topadi. Til ijtimoiy hodisa bo'lganligi uchun biz badiiy tarjima jarayonida shu millatlarning madaniyati bilan uchrashamiz. Tarjimon esa mana shunday go'zal jihatlarni xuddi asarning o'zida tasvirlangandek, balki undanda bo'yoqdor qilishi uchun avvalo shu xalqning madaniyatidan xabardor bo'lishi muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Badiiy tajima bu dramatik, ijodiy she'riyat va nasrni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonidir. Bu o'quvchining dunyo, ularning tarixi, falsafasi, siyosati va boshqalar haqida tushunchasini shakllantirishga yordam beradi. Badiiy tarjima nima ekanligi xususida bahslashar ekanmiz bu tarjimondan avvalo ijodiy yondashuvni va tarjima mahoratini talab qiladigan tarjimaning bir turidir. Badiiy tarjima quyidagilarni tarjima qilishni o'z ichiga oladi:

1. Adabiy maqolalar
2. Badiiy romanlar
3. She'rlar
4. Pyesalar
5. Qo'shiqlar

6. Romanlar
7. Qissalar
8. Dostonlar va boshqalar.

Xo'sh avvalo bunday adabiy va xalq o'zaki ijodiga tegishli matnlarni tarjima qilishda qanday qiyinchiliklarga uchrash mumkin? Qiyinchiliklardan biri bu manbalarning turli madaniyat va tillarga tegishliligidir ya'ni ularning lingvomadaniy xususiyatlari turlichadir.

Yana bir qiyinchiliklardan biri turli millatlarga tegishli bo'lgan urf odatlar tasvirlangan matnlarni tarjima qilishdir. Chunki shu xalqlarga tegishli bo'lgan atamalar, so'zlar, idiomalar, realialarning boshqa tildagi ekvivalenti bo'lmasligi mumkin yoki ular boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Bunday holatlarda so'zma so'z tarjima qilish xavfli hisoblanadi va tarjimondan tasavvurni talab etadi.

Badiiy tarjima jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish orqali ekvivalenti mavjud bo'lmagan so'zlarni tarjima qilish osonlashadi:

Epitetlar – bu hodisa yoki obyektning badiiy xususiyatlarini beruvchi obrazli ta'rif. U sifat yoki ot, fe'l yoki ergash gap shaklida berilishi mumkin. Epitetlar adabiyot nazariyasining asosiy atamalaridan biri bo'lib, so'zni ta'riflaydi va unig ifodaligiga ta'sir qiladi. Asosan epitetlarni yozishda sifatlardan foydalaniladi.

Masalan : O'zbek tilida: oydin kecha, iliq yoz, tillaqoshdek ingichka oy, nurli iz, mungli shivirlash, (O'tkir Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

Ingliz tilida: raven hair, Moorish eyes, snowy day ("the Alchemist" by Coelho Paulo)

Taqqoslash: matnning stilistik rang barangligini hisobga olgan holda tarjima qilish.

Metaforalar : tarjima qilinayotgan matndagi belgilarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda semantik jihatdan tarjima qilish

Neologizmlar: asl ma'no saqlanib qolgan holda yangi zamonaviy so'zlar yordamida tarjima qilish

Ironiya so'z va qarama qarshilikni solishtirish orqali tarjima qilish.

Topologiya va asosli nomlar: joy va odamlar nomlari o'quvchilarni hayratda qoldirish uchun bir xil ma'noda tarjima qilinadi.

Muhokama va natijalar

Xos so'zlar ma'lum bir xalqga xos bo'lgan milliy mentalitetni, urf odatlarni ularning kundalik turmush tushunchalarini qisqartirib aytganda ularning lingvomadaniyatini o'zida aks ettiradi. Badiiy asarlarda xos so'zlarning nisbatan ko'proq qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Ularni tarjima qilish jarayonida tarjima qilinayotgan tilda bunday so'zlar boshqa ma'noni anglatishi, yoki umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. Turli tillarning milliy xususiyatlar ular adabiyotining barcha janrlarida masalan: epik, lirik, yoki dramatik janrlarida o'z aksini topadi. Ingliz tili va o'zbek tillarida yaratilgan satirik va yumoristik asarlar ma'no jihatidan o'xshash bo'lsada yumor va satirani ifodalayotgan vositalar turlichadir. Ular o'z millatiga xos bo'lgan so'zlardan va hazil mutoyibadan foydalanadilar. Tarjima qilingan adabiyotni o'quvchi o'qiyotganda u boshqa millatga mansub bo'lgan hazilni to'g'ri tushuna bilishi va ayni qayerda kulishni topa olishi kerak bu esa tarjimoning mahoratiga va qanchalik darajada o'sha millatning madaniyatidan xabardorligiga bog'liq. Badiiy matnlarni tarjima qilayotganda quyidagi metodlardan foydalanilsa turli notanish va tushunarsiz so'zlarni tarjima qilishda duch kelinadigan qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin:

1.Transformatsiyalardan foydalanish – notanish soʻzlarning oʻrniga boshqa hamma tushunadigan soʻzlardan foydalanish. Transformatsiyalar ham 5 turga boʻlinadi. **Birinchi turi** – keng maʼnoli soʻzlarni tarjima qilish. Ingliz tilidan aksariyat feʼllarni tarjima qilishda foydalaniladi. Bunga misol qilib “ to have”,“to make”,“turn”,“to get”,“to do” va boshqalar bu feʼllar kontekstda turli feʼllar bn birga kelib turli maʼnolarni anglatadi va aniq maʼnoni tarjimada berishni talab qiladi.Keling *to have, to make, va to take* feʼllarini Coelho Pauloning the Alchemist (Alkimyogar) asarida qoʻllanilishini koʻrib chiqamiz:

1.*The alchemist picked up a book that someone in the caravan had bought.....*

.....he had had the same dream that night,

birinchi gapda *to have* feʼli *present perfect*ga ishora qilsa, ikkinchi gapda *tush koʻrish* maʼnosida tarjima qilinadi.

2.....*who could make them forget the joys of carefree wandering.....*

....they never have to make any decision...

.... He had made an impression on him

Ikkinchi gapda *make* soʻzi **arzimoq** deya tarjima qilinadi yaʼni *dunyo kezish baxtidan voz kechishga arziydigan* deya tarjima qilinadi. ikkinchi gapda *ular da hech qanday tashvish yoʻq* deya tarjima qilinadi6 soʻnggi gapda *ishonchi komil edi* deya tarjima qilinadi

2. **Ikkinchi turi bu**- umumlashtirish- ayrim keraksiz va ortiqcha soʻzlar qisqartiriladi yoki olib tashlanadi.Masalan joy nomlari, mahsulot nomlari oʻquvchiga informative xarakterga ega emas shuning uchun bu soʻzlarni olib tashlash yoki boshqa soʻz bn alishtirish mumkin.

3.**Uchinchi turi** bu- ikki hodisa oʻrtasidagi mantiqiy aloqa. Bunda asosan ikkita yoki uchta gap 1 ta gapshaklida yoziladi ular orasidagi ortiqcha soʻzlar olib tashlanadi va bu gapning maʼnosiga putur yetkazmaydi. Misol sifatida Coelho Pauloning the Alchemist (Alkimyogar) asarida qoʻllanilishini koʻrib chiqamiz:

English:

He had always believed that the sheep were able to understand what he said. So there were times when he read them parts of his books that had made an impression on him, or when he would tell them of the loneliness or the happiness of a shepherd in the fields. Sometimes he would comment to them on the things he had seen in the villages they passed.

Uzbek:

Umuman, uning ishonchi komil edi — qoʻylar Santyago aytgan gaplarni yaxshi tushunardi, shuning uchun baʼzan u kitobchalarning oʻziga yoqqan joylarini qoʻylarga eshittirib oʻqir yoki suruvni haydab oʻtgan shaharlar, qishloqlarda eshitgan yangiliklarni ularga gapirib berardi

4. **Toʻrtinchi turi**- antonimik transformatsiya bunda darak gapda qoʻllangan gap inkor bilan oʻzgaradi, asliyatda qoʻllangan soʻz zid maʼnolisi bilan almashtiriladi. Misol sifatida Coelho Pauloning the Alchemist (Alkimyogar) asarida qoʻllanilishini koʻrib chiqamiz: **take a chance- chekinishning endi iloji yoʻq** shaklida tarjima qilingan

5.**Oxirgi turi**- gapning tushurib qolingani qismini toʻdirish. Bu odatda asliyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yoʻq boʻlgan holatlarda qoʻllaniladi

A)Transliteratsiyalardan foydalanish-muqobili mavjud boʻlmagan soʻzlarni talaffuzini berish. Bu asosan kishi ismlari, joy va geografik nomlar, lavozimlar,atoqli otlarda keng qoʻllaniladi.

b)Ma’noni yaqinlashtirib tarjima qilish- ya’ni ekvivalenti mavjud bo’lmagan so’z ma’nosiga yaqin yoki o’xsash ma’noli so’z tanlanadi. Masalan Coelho Pauloning the Alchemist (Alkimyogar) asarida quyidagicha qo’llanilgan:

English : They never **have to make any decisions**, he thought. Maybe that’s why they always stay close to me.

Uzbek: “**Qo’ylarga oson**, — o’yladi u, — hech qanday tashvishi yo’q. Ehtimol, shuning uchun ularning mendan ajralgisi kelmas”.

Never have to make any decision birikmasi *qo’ylarga oson* birikmasi shaklida tarjima qilinyapti yani birikma ma’nosiga yaqin ma’no olinyapti.

c)tasviriy tarjima usuli- bunda bir so’z o’rniga tarjimada so’z birikmasi, ibora yoki butun bir gap qo’llaniladi.[1,108] Masalan Coelho Pauloning the Alchemist (Alkimyogar) asarida quyidagicha qo’llanilgan

english: if I became **a monster** today, **uzbek:**Agar bugun men **yirtqich hayvonga** aylansam.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida lingvomadaniyatning o’rni beqiyosdir. Xalqlarning madaniyatidan xabardor bo’lmagan tarjimon matnni kerakli darajada jozibador va o’quvchibop qilib tarjima qila olmaydi. Zamon o’zgargan sari madaniyat ham badiiy asarlar ham o’zgarib boraveradi. Ammo tarjima sohasiga bo’lgan ehtiyoj ortsa ortadiki hech qachon kamaymaydi. Shuning uchun ham biz malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratishimiz joizdir. Ularni kerakli bilim, malaka bilan amaliyot va nazariya bilan ham qurollantirsak maqsadga muvofiq bo’ladi va bu ishni biz hozirdanoq boshlashimiz kerak toki kelajakda ular malakali kadrlar bo’lib yetishsinlar. O’zbek o’quvchisi ham jahon adabiyotining eng durdona asarlarini o’zbek tilida mutolaa qilish imkoniyatiga ega bolsin.

REFERENCES

1. I.G’afurov, O.Mo’minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Toshkent 2012
2. Qudrat Musayev . Tarjima nazariyasi asoslari. Fan -2005
3. Coelho Pauloning the Alchemist (Alkimyogar) translated By Alan R. Clark
4. Abdullayeva Ruqiya Muhammadovna. Badiiy tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Maqola
5. <https://translate.jurklee.ua/en/chto-takoe-hudojestvennyiy-perevod/>
6. Royallib.ru
7. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – T. 2. – №. 12. – С. 4-7.
8. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
9. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.